

DAVLAT XIZMATI TUSHUNCHASI VA RAQAMLI MAKONDA UNING
AHAMIYATI

Sunnatova Madina G‘ofurjon

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi huquqi

mutaxassisligi magistranti

sunnatovamadinka@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat xizmati tushunchasi, uning nazariy asoslari, davlat xizmatining belgilari, bugungi kundagi raqamlashtirish sharoitida davlat xizmatining o‘rni, Rossiyadagi raqamli davlat xizmatiga misollar va bu boradagi tajribasi o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish, davlat boshqaruvi, davlat xizmati belgilari, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, davlat xizmati portali, Rossiya, davlat xizmatchisi.*

Kirish. O‘zbekistonda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda, umuman olganda, davlat boshqaruvini avtomatlashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va sifatli davlat xizmatlarini ko‘rsatishning muhim omiliga aylanmoqda. Ushbu majburiyat raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish davlat boshqaruvi shaffof va samarali boshqaruvini ta‘minlashning muhim omili ekanligini tushunishga asoslanadi. Qiyinchiliklarga faol javob berish va ta‘lim tashabbuslarini doimiy ravishda takomillashtirishga sodiqlik davlat xizmatchilarining raqamli asrga muvaffaqiyatli moslashishini ta‘minlaydi. “Har bir soha raqamli texnologiyalar bilan hamqadam bo‘lmasa, mamlakat rivojlanmaydi”, deya O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bejiz ta‘kidlamagan.

Asosiy qism. Davlat xizmati tizimini raqamlashtirish hozirgi axborot-texnologiyalari davrining eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada O‘zbekiston, shu bilan bir qatorda dunyoning ko‘pgina davlatlarida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Rossiyada texnologiyani davlat boshqaruviga joriy etish uchun jiddiy harakatlar qilindi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni tartibga solish uchun davlat organlari tomonidan ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Davlat xizmati ilmiy-adabiyotlar va xorijiy mamlakatlar qonunchiligida keng qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga nafaqat davlat fuqarolik xizmatini, balki maxsus xizmat, siyosiy xizmat, kadr kabi tushunchalarni qamrab oladi. Bu esa, bevosita mavzuga taalluqli bo‘lgan boshqa kategoriyalarni ham tahlil qilish imkonini beradi. Bu masalada “davlat xizmati”ga oid nazariyalarni, yana boshqa ko‘plab olimlar g‘oyalarini ham eslab o‘tish o‘rinlidir. Xususan, rossiyalik olim G.V.Atamanchuk davlat xizmatchisini 2 xil vazifani bajaruvchi subyekt sifatida ko‘radi, ya‘ni ham davlat

oldidagi huquq va majburiyatlarni bajaruvchi lavozim egasi, ikkinchi tomondan, davlatning fuqarolar oldidagi huquq va majburiyatlarini bajaruvchi, ular bilan huquqiy munosabatlarga kirishuvchi mas’ul shaxs.⁴⁰ Bizning fikrimizcha, ushbu ta’rif boshqa nazariyalarga nisbatan, bugungi O‘zbekistondagi davlat xizmatchilariga qo‘yilayotgan talablarga yaqin. O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin, davlat hokimiyati va boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar sabab “davlat xizmati”ga oid yangi nazariyalar shakllana boshladi, bu haqda olimlar tomonidan ilmiy adabiyotlarda turlicha ta’riflar berilgan. Xususan, olima N.Sh.Saidgaziyeva: “Davlat xizmati – ko‘pdan-ko‘p tarkibiy qismlar birligidir. ... davlat apparatida ishlashga tayyorlangan odamlar majmui hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning alohida tizimidir” deb ta’rif beradi.⁴¹ Boshqa bir adabiyotda davlat xizmatining muhim belgilari sanab o‘tilgan:

- davlat xizmatining davlat tashkilotlarida amalga oshirilishi;
- davlat tashkilotidagi birlamchi professional faoliyat;
- davlat xizmatchilarining hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lishi;
- davlat xizmatining davlat organlarida muayyan vakolat va javobgarlikka ega

bo‘lgan mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilishi.⁴²

Davlat xizmati faoliyati samaradorligini oshirish, davlat organlari va tashkilotlarining malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini 2017 – 2021 yillar rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida va O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan⁴³:

– davlat xizmatchisi – davlat xizmatining davlat reestriga kiritilgan lavozimlarda o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi;

– xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida qarorlarida belgilangan tartibda davlat xizmatchilari lavozimlarini egallashlari mumkin;

– Davlat xizmati lavozimlarining Davlat reestriga kiritilgan lavozimlarni egallagan davlat xizmatchilarining davlat xizmati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmat va huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat o‘tash davlat maxsus xizmati hisoblanadi va alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Bundan tashqari, davlat organlari va tashkilotlarida kadrlar boshqaruvi va kadrlar salohiyatini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini

⁴⁰ Атаманчук Г.В. Сущность государственной службы. Монография. М.: ПАГС, 2008. – С. 122.

⁴¹ Said-Gaziyeva N.Sh. O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh etish masalalari. – T.: TDYUI, 2008.

⁴² Xojiyev E.T., Ismailova G.S., Raximova M.A. Davlat xizmati. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston, 2014. – B. 248.

⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 4947-son Farmoni.

rivojlantirish agentligi (ARGOS) tashkil etildi. ARGOS o'z faoliyatida bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va unga hisobot beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat xizmati va vakillik organlari bilan o'zaro munosabatlari masalalari bo'yicha maslahatchisi bir vaqtning o'zida ARGOS direktori hisoblanadi. ARGOSni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvi tadqiqotchilari davlat xizmatida kadrlar bilan ishlashga yagona uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha davlat siyosatini boshqarishning yagona markazini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bu 2024-yilga kelib tashkilotlar va fuqarolarning ma'muriy yukini 50% ga kamaytirish, davlat nazorati turlarining umumiy sonini 3 baravar kamaytirish, federal nazorat va nazorat organlari sonini qisqartirishga imkon beradi.⁴⁴ Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, davlat boshqaruvini raqamli o'zgartirish jarayoni butun jamiyat uchun sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy samara berishi mumkin bo'lgan platforma yondashuvi bilan birga keladi. Davlat geografik axborot tizimi portallari, davlat xaridlari portallari va davlat xizmatlarini ishlab chiqishda allaqachon platforma yondashuvidan foydalanmoqda. Davlat xizmati tizimini rivojlantirish, shu jumladan davlat xizmatiga kirish, o'tish va tugatish bosqichlari bosqichma-bosqich platformaga o'tkazilishi kerak.

Davlat xizmatini raqamlashtirish borasida xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish ham juda muhimdir. Davlat xizmati portali (gossuzhba.gov.ru) davlat xizmatining kadrlar tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy davlat axborot resursidir, Rossiya Federatsiyasi davlat xizmati xodimlarini boshqarishning yagona axborot tizimining asosi hisoblanadi. Portal davlat fuqarolik va kommunal xizmatlar bo'yicha bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini, rahbar kadrlar zaxirasini tayyorlash va rivojlantirish, malakasini oshirish bo'yicha axborot-uslubiy materiallar bazasini o'z ichiga oladi. davlat xizmatchilari va korrupsiyaga qarshi kurash, davlat xizmati to'g'risidagi dolzarb ma'lumotlarni to'playdi. Portaldan foydalanib, bo'sh lavozimni egallash bo'yicha tanlovda ishtirok etish uchun hujjatlarni topshirish, davlat xizmati asoslari bo'yicha bilimlarni sinab ko'rish, davlat xizmatiga kirish, to'ldirish va tugatish bo'yicha savollarga javob topish, davlat xizmatiga oid barcha o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot olish mumkin. Portal platformasida davlat xizmatchilarining malakasini oshirish bo'yicha yagona ixtisoslashtirilgan axborot resursi mavjud bo'lib, u xodimlarning malakasini oshirish va ularning kasbiy faoliyatida uzluksiz o'qitishga mo'ljallangan.

Raqamlashtirish sharoitida Rossiya Federatsiyasining davlat xizmatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2019-yil 24-iyundagi 288-sonli farmonida⁴⁵ belgilangan. Unga ko'ra davlat xizmatchilari, shu

⁴⁴ Щекочихина С.А., Ръжакова Е.В. Цифровые технологии в определении перспективного облика государственной службы. Муниципальная академия. – 2019. - № 1 – С. 43-49.

⁴⁵URL: <https://www.consultant.ru/law/hotdocs/58231.html>

jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadiganlar, kadrlar bilan ishlash sifatini oshirish maqsadida davlat organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish belgilangan.

Xulosa. Hozirgi davrda ma'muriy islohotlarni axborot texnologiyalarini rivojlantirmasdan, raqamli sohaga yangi loyihalarni joriy etmasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Bu davlat boshqaruvi tizimining sifati va samaradorligini oshirishda zarur. Davlat xizmati sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega, chunki davlat boshqaruvi tizimining asosi aynan davlat xizmatchilari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF – 4947-son Farmoni.
2. Атаманчук Г.В. Сущность государственной службы. Монография. М.: РАГС, 2008. – С. 122.
3. Said-Gaziyeva N.Sh. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh etish masalalari. – T.: TDYUI, 2008.
4. Щекочихина С.А., Рыжакова Е.В. Цифровые технологии в определении перспективного облика государственной службы. Муниципальная академия. – 2019. - № 1 – С. 43-49.
5. Хojiyev E., Ismoilova G, Raximova M. Davlat xizmati: o'quv qo'llanma. – T., O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi. 2014. – B. 248.

Foydalanilgan internet resurslari:

1. <https://www.consultant.ru/law/hotdocs/58231.html>